

1-Mavzu: Kirish. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning ilmiy - uslubiy asoslari.

Reja:

- 1.1.** Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanining predmeti, vazifalari va uslubi.
- 1.2.** Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida agrar munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari.
- 1.3.** Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari va tamoyillari.
- 1.4.** Agrar sohada iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari, qonunlar, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

Tayanch iboralar: agrar munosabatlar, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy omillar, iqtisodiy qonunlar, ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarish munosabatlari, islohot, mehnat, qonun, xususiylashtirish.

Foydalangan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2011. - 346 b.
2. Samatov G'.A, Yodgorov J.Yo, Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha biznes maktablar tinglovchilari uchun qo'llanma).- T.:ToshDAU taxririya 2004.
3. Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007. - 276 b.
4. Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizatsiya selskoxozyaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. - M.: Kolos OOO, 2008. - 607 s.
5. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik.-T.: EXTREMUM-PRESS, 2011, 386 b.

Xorijiy adabiyotlar:

6. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587
7. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw-Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523
8. Connor, D. J.; Loomis, R.S.; Cassman, K.G. 2011. Grop Ecology. Productiviti and Management in Agricultural Systems. University Press ISBN: 9780521744034.
9. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

1.1 Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanining predmeti, vazifalari va uslubi.

“Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish” fani iqtisodiyotga oid fandır. Shu sababli u boshqa iqtisodiy fanlar bilan, eng avvalo iqtisodiyot nazariyasi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, logistika va boshqa shu kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq.

Shular bilan bir qatorda “Qishloq xo’jalik korxonalarida ishlab chiqarishini tashkil etish” fani texnikaviy va texnologik, umumiy dexqonchilik-o’simlikshunoslik, zootexnika-chorvachilik, veterinariya va boshqa fanlarga tayangan xolda ish ko’radi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qishloq xo’jaligida ishlab chiqarishni tashkil etuvchi tashkilotchi birgina iqtisodiy fanlarni o’zlashtiribgina qolmay, maxsulot yetishtirish texnikasi va texnologiyasini chorvachilik va dexqonchilik tizimlarini barcha unsurlari bilan bogliq bo’lgan xamma fanlarni xam o’zlashtirgan bo’lishi va bilishi zarur.

“Qishloq xo’jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish” fanining o’rgnish ob’yekti bo’lib, bugungi kunda sohada faoliyat yuritayotgan qishloq xo’jalik kooperativlari (shirkat xo’jaliklari), fermer va dehqon xo’jaliklari hamda agrofirmlar hisoblanadi.

Fanning ahamiyatiga to’xtaladigan bo’lsak, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini iqtisodiy va tashkiliy jihatdan yanada rivojlantirish, uni rejalashtirish, korxonalar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xodimlarning moddiy manfaatdorligini oshirishda “qishloq xo’jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish” fani muhim rol o’ynaydi.

“Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishni tashkil etish” fanining vazifalari. Qishloq xo’jalik ishlab chiqarishining barqaror o’sishiga erishish, mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo’jalik xom ashyosi bilan to’liq ta’minlash va samarali pirovard natijalarga erishish uchun mavjud qonuniyatlar va tamoyillarga muvofiq qishloq xo’jaligi korxonalarining oqilona, eng samarali va maqbul tuzilishi bo’yicha ilmiy qoidalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Mamlakatimizda qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy funksional vazifalar quyidagilarni o’z ichiga oladi:

-qishloq xo’jaligida tashkiliy-huquqiy shakllarni tanlash, ishlab chiqarish hajmlari, tashkiliy va ishlab chiqarish tizimlarini ilmiy asoslash, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan yer maydonlarini tashkillashtirish, qaysi dalaga qanday ekinlar ekish maqbuligini aniqlash, mehnat va moddiy resurslarni shakllantirish;

- qishloq xo’jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni samarali tashkil qilish bo’yicha ilmiy asoslangan yo’nalishlar va amaliy tadbirlarni tashkil etish;

- shirkat, fermer va dehqon xo’jaliklari, ularning birlashmalari uchun bozor iqtisodiyoti sharoitlarida istiqbolli modellarni ishlab chiqish. Bu modellarning samaradorligi mezonlari sifatida ishlab chiqarish hajmlarining o’sishi, xarajatlarning tejalishi, ijtimoiy sharoitlarning yaxshilanishi kabilarni ko’rsatish mumkin;

-mavjud foydalaniladigan yer maydonlari, suv resurslari va boshqa vositalarni ishlab chiqarishning istiqboliga muvofiq kelishi, ishlab chiqarish kuchlarining o’sishi ishlab chiqarishning o’sishiga imkon yaratishi, resurslarning har bir turidan samarali foydalanish;

-yer maydonlaridan foydalanishni tashkil etishda ularning miqdor va sifat jihatlarini hisobga olish, xo’jalik va iqtisodiy maqsadlardan kelib chiqib, yer resurslarining transformasiyasi va rekultivasiyasi (qayta madaniylashtirilishi), yerni muhofaza qilish bo’yicha, tuproqni asrash va boshqa tadbirlarni amalga oshirish;

-qishloq xo’jalik korxonalarining yo’nalishlari va hajm ko’rsatkichlarini ilmiy jihatdan asoslab berish;

-qishloq xo’jalik korxonalarini istiqbolini rejalashtirishni takomillashtirish va bizhes rejani tuzish yo’llarini ko’rsatish;

-qishloq xo’jalik korxonalarida mehnatni tashkil etishning ilg’or usullarini joriy etish, me’yorlash, unga haq to’lashni takomillashtirish tadbirlarini belgilab beish;

-dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini barqaror rivojlantirish va ularga xizmat qiluvchi hamda qayta ishlovchi korxonalarini rivojlantirish bo’yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;

-qishloq xo’jalik korxonalarini bilan xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlar o’rtasidagi shartnomalarni tuzish va takomillashtirish bo’yicha yo’l-yo’riq ko’rsatish.

Umuman olganda, “Qishloq xo’jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish” fanining vazifasi bozor iqtisodiyoti talablari asosida qishloq xo’jaligining rivojlantirish sohasida o’rtaga quyilgan masalarni hal etishga faol ko’maklashishdir.

Fanning uslubi deyilganda, tadqiqot predmetini o'rganish yo'llarining majmuasi tushuniladi. Agar uslub, ya'ni usul voqyelikning obyektiv qonuniyatlarini ifodalasa, amaliyotga asoslansa, o'z obyektini uzluksiz davomiylikda o'rgansa va tajribalarni umumlashtirib borsa, u ilmiy hisoblanadi.

Tadqiqotlarning eng muhim uslubi jarayonlarni o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda qarama-qarshiliklar kurashi birligi orqali doimiy taraqqiyotda, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishda o'rganiladigan dialektik uslub hisoblanadi.

Tadqiqotlarda asosan ikki usuldan foydalanish mumkin bo'lib ular biri-birisiz mavjud bo'lmaydi.

Induksiya usuli. Bunda alohida bir xil faktlardan umumlashtirishga, juz'iydan umumiy xulosalar chiqarishga tayaniladi.

Deduksiya usuli. Umumiy qoidalar va qonuniyatlardan kelib chiqib, nisbatan juz'iy xulosalar chiqariladi.

“Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish” fani iqtisodiy tadqiqotlarning bir qancha uslublaridan foydalanadi. Ular orasida quyidagi uslublar, ayniqsa keng qo'llaniladi.

Statistik guruxlash usuli - barcha ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha: qishloq xo'jaligida chorvachilik mahsulotlarining o'sishi, ekinlar hosildorligi, ish kuchi, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish darajalari, mehnat sarflari va unumdorligi, mahsulot tannarxi va daromadlar, mexanizasiyadan foydalanish darajalari bo'yicha juda katta ma'lumotlarni to'plashga qaratilgan usuldir. Amalda bu ma'lumotlar guruxlanib korxonalarining ixtisoslanishi, xo'jalikning maqsadga muvofiq xajmini asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi ayrim omillarni aniqlashda ishlatiladi.

Monografik usul - ayrim ilg'or xo'jaliklar va ularning ichki bo'linmalari ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatini sinchiklab o'rganishda hamda ayrim ish metodlarini chuqur taxlil qilishda foydalaniladigan usuldir. Tadqiqot ishlarining bu usulini qo'llanishi ko'pgina tashkiliy masalalarni to'g'ri hal qilish imkonini beradi. Bu usuldan foydalanishda to'plangan ma'lumotlar, hodisalar va jarayonlar orasidagi bog'lanishlarni aniqlashda, qonuniyatlarning ma'nosini ochishda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining istiqbollarni belgilashda va barcha yangiliklar hamda ilg'or ish usullarini qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga tadbiiq etishda asosiy yo'llarni belgilashga yordam beradi.

Tahlil qilish-hodisaning har bir qismini alohida batafsil o'rganish, ular orasidagi bog'lanishlarni tadqiq qilish maqsadida ularni tarkibiy qismlarga ajratishdir. Tahlil qilish ilmiy bilishning eng asosiy va ko'p tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi ishlab chiqarish tarmog'idagi chuqur jarayonlarni va xususiyatlarni ko'rsatib berishdan iboratdir.

Tahlil qilishning asosiy usuli-xo'jalikning bir necha yil davomidagi ko'rsatkichlarini, biror korxonaning va teng tabiiy- iqtisodiy sharoitlarda eng yaxshi natijalarga erishgan ilg'or xo'jaliklarning hisobot va reja ma'lumotlarini dinamik ravishda taqqoslashdir. Ayrim omillar o'rtasidagi bog'lanishni va o'zaro aloqalarni, muhim masalalarni belgilash zarur bo'lib, ularning hal qilinishi umuman muammoni yechimini topishning muvaffaqiyatini oldindan aniqlab beradi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda yillik va kvartal hisobotlari, yig'ma hisobotlarga oid ma'lumotlar boshlang'ich ma'lumotlar hisoblanadi. Tahlil qilish ishlab chiqarishning kamchiliklarini ochish, xo'jalikning moliyaviy faoliyatini yaxshilashning asosiy yo'llarini belgilash imkonini beradi.

Hisob-kitob(reja) - konstruksiya uslubi. Bu uslub korxonada ishlab chiqarishni tashkil etishda ba'zi bir jihatlar yoki butun tizimni rivojlantirishning istiqbolli rejasini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Maqsadga erishishning eng samarali variantini tanlash, ya'ni qo'yilgan vazifalarni oqilona bajarishga imkon yaratadi.

Matematik modellashtirish uslublari. Bu uslublar ishlab chiqarish uchun eng qulay variantlar va sharoitlarni tanlash muammolarini hal etishda qo'llaniladi. Korxonada, viloyat, tuman resurslaridan eng samarali foydalanish variantini topish, eng yuqori natijalarga erishish uchun istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Abstrakt - mantiqiy uslub aniq bir hodisalar, jarayonlarni ularning ahamiyatsiz jihatlarini hisobga olmagan holda o'rganishda qo'llaniladi. Bu usul ma'lum bir darajada tadqiqot predmetini soddalashtirish, ikkinchi darajali juz'iy tomonlarni hisobga olmaslik va mantiq yordamida o'rganishga imkon beradi.

Eksperimental (tajriba) uslubi. Bu uslub ishlab chiqarishni tashkil etishning usullari va yo'llariga iqtisodiy jihatdan baho berish bo'yicha tajribalar o'tkazish, korxonalar faoliyatining shart-sharoitlarini aniqlash, bu shart-sharoitlarning samaradorlikka ta'sirini aniqlashda qo'llaniladi. Tadqiqotlarning yuksak sifatli bo'lishiga imkon beradi.

“Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish” fanida qo'llaniladigan har bir uslub o'ziga xoslikka, afzalliklarga va ayni paytda ma'lum bir kamchiliklarga ham ega ekanligini ta'kidlash lozim.

Talabalar uchun fanni o'rganish ikkita o'zaro bog'liq vazifani hal etishni ta'minlashi lozim: 1) qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish fanining nazariy asoslarini tushunib etish, anglash; 2) ayrim tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

“Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish” qonuniyatlar, tamoyillarni ochib beradigan va tushuntiradigan, qishloq xo'jalik korxonalarining oqilona tuzilishini shakllari va usullarini, agrar sohaning boshqa tarmoqlari bilan o'zaro aloqasi asosidagi samarali faoliyatini amalga oshiruvchi fandır.

“Tashkil etish” so'zi lotin tilidagi organize so'zidan olingan bo'lib, tizimga solish, xabarlashib, birgalashib bajarish, tartibga solish, qurilma ma'nolarini bildiradi. Keng ma'noda “tashkil etish” so'zi qandaydir bir vazifani bajarish uchun, masalan, qishloq xo'j alik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun kishilarni birlashishini bildiradi. Fanda “tashkil etish” so'zini ikki ma'noda qarash lozim: birinchidan, hodisa, ikkinchidan, jarayon sifatida. Hodisa sifatida “tashkil etish” xo'jalik shakllarini tashkil etishni o'rgansa, jarayon sifatida -qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'rganadi.

2. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida agrar munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari.

Agrar sohaning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ushbu fan doirasida biz faqat eng ahamiyatli xususiyatlarga to'xtalib o'tishni lozim topdik:

1. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi asosan fermer xo'jaliklari tomonidan amalga oshiriladi. Ular yetarlicha yirik korxonalar bo'lishlari ham mumkin, ammo, odatda sohani monopollashtira olmaydilar. Boshqacha qilib aytganda, nisbatan kichik qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari, bozorga ta'sir etishi mumkin bo'lgan qandaydir guruhlarni tashkil eta olmaydilar, ayrim fermer xo'jaliklari esa bozor narxlariga ta'sir etuvchi darajadagi ishlab chiqarish hajmlariga umuman yeta olmaydilar. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida sotuvchilar ko'pligi sababli, ularning hych qaysisi narxga ta'sir etishi mumkin bo'lgan hajmdagi mahsulotni taklif eta olmaydi.

Agrar sohada mukammal raqobatning asosiy ikkita shartiga rioya qilinadi:

- bozorda ko'p sonli sotuvchilarning mavjudligi, ularning hech biri narxga ta'sir qilish uchun yetarli bo'lgan mahsulot hajmiga ega emasligi;

- sotuvchilarni bozorga kirishi va chiqib ketishi erkinligi.

Shuning uchun ham biz, qishloq xo'jaligi-mukammal raqobatli tarmoq deb ta'kidlashimiz mumkin. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida bunday hol kamdan-kam uchraydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ushbu xulosa faqatgina mukammal bozor mavjud bo'lgan, rivojlangan mamlakatlar uchun to'g'ri bo'ladi. Rivojlanayotgan davlatlarning qishloq xo'jalik bozorlarida, rivojlangan davlatlarnikiga nisbatan, sotuvchilar ko'proq bo'ladi. Birinchidan, qishloq aholisining salmog'i kattaroq (60-67%gacha), ikkinchidan, xo'jaliklar ham ancha mayda. Ammo mahsulot, resurslar va birinchi navbatta yer, bozorlarining rivojlanmaganligi, ushbu bozorga kirish va chiqishni qiyinlashtiradi yoki umuman mumkin bo'lmaydigan qiladi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan davlatlarda bozor infratuzilmasini yaxshi va tekis rivojlanmaganligi, narxlar to'g'risidagi axborotlarning yetishmasligi va buning oqibatida dehqonlar hisobiga vositachilar soni ko'p bo'lishi, mukammal raqobatga to'sqinlik qiladi va oxir-oqibat rivojlanayotgan

davlatlar iqtisodiyotida bozordan tashqarida bo'lgan aloqalar ko'pchilikni tashkil etadi (masalan dehqonlarning bir-biriga bo'lgan o'zaro yordami va h.q).

2. Qishloq xo'jaligida mahsulotni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari juda kam bo'lib, texnik taraqqiyot, o'simlik va hayvonlarning yangi, yanada takomillashgan, nav va zotlarini hosil qilish bilan kuzatiladi. Ammo seleksion faoliyat o'simlik va hayvonlar yangi turlarining mahsuldorlik sifatini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Lekin seleksioner olimlar tomonidan yaratilgan bug'doy yoki kartoshka navlari o'z iste'mol sifatleri bo'yicha baribir o'sha-o'sha bug'doy yoki kartoshka bo'lib qoladilar va iste'molchilar uchun ularning foydaliligini oshirish qiyin. Bu ma'noda iqtisodiyotning

boshqa tarmoqlariga nisbatan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'z mahsulotiga narxni oshirish borasida ko'proq cheklanganlar.

Natijada, qishloq xo'jaligi rivojlanishini deyarli butun tarixi davomida, qishloq xo'jaligi mahsuloti va qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan narxlar nomutanosiblii agrar sektor foydasiga o'zgarmagan.

3. Qishloq xo'jalik sohasining so'nggi mahsulotlaridan biri-oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning elastikligi odatda past. Iste'molchilar oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlarini, ularning narxi o'sishi yoki kamayishidan qat'iy nazar, o'zgarmas hajmlarda sotib oladilar. Hisob-kitoblarga qaraganda, industrial davlatlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'rtacha elastiklik koeffitsiyenti taxminan 0,2 - 0,25% ni tashkil qiladi, ya'ni fermer o'z mahsuloti sotilishini 10% ga oshirishi uchun, uning narxini 40 - 50 % ga pasaytirishi lozim.

4. Daromad bo'yicha ham qishloq xo'jalik va oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talab noelastik hisoblanadi. Ko'pdan kuzatilganki, agarda oilaning moliyaviy ahvoli pastroq darajada bo'lsa, har bir qo'shimcha topilgan so'm birinchi navbatda boshqa tovar va xizmatlarga sarflanadi insonning puli ko'paygani bilan uning ovqatlanish fiziologik qobiliyati oshmaydi. Shuning uchun ham daromadlar oshishi bilan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab proporsional tarzda oshmaydi.

5. Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab elastikligining pastligi uzoq muddatli fermerlik muammosini yuzaga keltiradi. Taklif oshmagan yoki sekin oshgan taqdirda ham talab elastikligining pastligi iqtisodiyot sektori uchun hal qilib bo'lmaydigan muammo emas. Ammo gap shundaki, so'nggi asr davomida, agrar sohada sezilarli ilmiy taraqqiyot yuz berdi: otlar o'rniga mexanizmlar ishga tushirildi, fermalar elektrlashtirildi, mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini qo'llash hosildorlikni oshirish imkonini berdi, hayvon va o'simliklar seleksiyasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Qishloq xo'jalik mehnati unumdorligi ham keskin oshdi - agarda o'tgan asrda amerikalik fermer 4 ta odamni boqqan bo'lsa, hozirgi kunda u deyarli 100 ta odamni boqayapti. Shu tarzda qishloq xo'jalik mahsulotlarining taklifi tez o'sib bordi.

Shunday qilib, iqtisodiyot va ilmiy - texnik taraqqiyotning rivojlanishi bilan qishloq xo'jaligi ikkita tendensiya orasida "siqilib" qolgan bo'ladi. Bir tomondan, taklif o'sishi bilan sohaning umumiy pul tushumi kamayib boradi. Ikkinchi tomondan, sotib olinayotgan tovarlar narxi, fermerlar mahsulotiga bo'lgan narxlardan o'zib ketadi. Oxir - oqibat fermerlar daromadlarining nisbatan pasayishi yuz beradi. Uzoq muddatli istiqbolda fermerlarning daromadlari iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi daromatlardan orqada qoladi. Ammo buni qishloq xo'jaligida, daromadlar boshqa sohalaridagiga nisbatan past bo'ladi deb tushunish kerak emas. Birinchidan, fermerlik sektori bir xilda bo'lmaydi va bunday xulosa o'rtacha butun sektor uchungina qo'llanilishi mumkin, ayrim fermerlar esa iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan yuqori daromadlarga ega bo'lishlari mumkin. Ikkinchidan, gap uzoq muddatli tendensiya xaqida borayapti va ayrim davrlar oralig'ida butun fermerlar sektori daromadliliigi, iqtisodiyot boshqa sektorlarining o'rtacha daromadliliigidan yuqoriroq bo'lishi mumkin.

6. Qishloq xo'jaligi - yuqori raqobatli tarmoq ekan, bozor qonuniyatlariga muvofiq, daromadlar pasayishi bilan fermerlarni ushbu sohadan boshqa daromadliroq faoliyat sohalariga o'tishi kuzatiladi.

Birinchiidan, iqtisodiyotning ko'pchilik boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda, qishloq

xo'jaligi nafaqat ishlab chiqarish, balki hayot sohasi hamdir. Dunyodagi ko'pgina insonlar agrar mehnat bilan biznes uchun emas, balki ular dehqon turmush tarziga mansub bo'lganliklari uchun shug'ullanadilar. Natijada ushbu sohadagi bandlik, iqtisodiy kon'yunkturaga, boshqa sohalar singari tez javob qaytarmaydi, ya'ni boshqacha qilib aytganda agrar mehnatining harakatchanligi mobilligi yetarlicha past. Bu qishloqda yashovchi va qishloq ishlovchisining hayot va mehnat asoslariga bog'langanligi xususiyatidan kelib chiqadi va butun qishloq aholisining konservativ qarashlarini aks ettiradi.

Ikkinchidan, fermerlar o'z faoliyatini tashlab ketgan taqdirda ham ularning yerlari qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketmasdan boshqa fermerlar qo'liga o'tadi. Haydaladigan yerlarning bir qismini qisqa davr ichida oborotdan chiqarib tursa bo'ladi, ammo uni madaniy holatda saqlash uchun baribir xarajat qilish lozim. Bundan tashqari rivojlangan davlatlardagi ko'pgina yerlar ipoteka bilan bog'langanlar, ya'ni fermerlar ishlab chiqarish hajmlaridan qat'iy nazar foiz to'lab borishlari shart. Agarda xo'jalik faoliyati ijaraga olingan yerlarda yuritilayotgan bo'lsa fermerlar ijara xaqini to'lashlari lozim bo'ladi. Oilaviy fermer xo'jaligi ishlab chiqarishda band bo'lganlar sonini sezilarli kamaytira olmaydi - bu oila va bozorning o'zgargan kon'yunkturasiga javoban uni ishdan bo'shatib bo'lmaydi. Buning ustiga, iqtisodiy inqirozlar davrida qishloq xo'jaligida daromadlar pasayganda aholini shahardan qishloq tomon oqishi sodir bo'ladi.

Shuning uchun ham narxlar keskin tushib ketganda va hattoki bunday tushish uzoq vaqt davomida kuzatilganda ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi odatda, mos adekvat tarzda qisqartirilishi bilan javob bermaydi.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligidagi resurslarning harakatsizligi uzoq muddatli fermerlik muammosini yanada keskinlashuviga olib keladi.

7. Qishloq xo'jalik mahsulotiga bo'lgan talabning narx noelastikligi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining omil va raqobatga bo'lgan katta bog'liqligi bilan birgalikda qisqa muddatli fermerlik muommosini yuzaga keltiradi.

Qishloq xo'jaligi ob-havoga, o'simlik va hayvonlarda to'satdan kasalliklar tarqalishiga va boshqalarga bog'liq. Haqiqiy ishlab chiqarish hajmi absolyut darajada qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari nazorati ostida emas. Bundan tashqari, butun mamlakat bo'ylab tarqalgan bir necha ming kichik ishlab chiqaruvchilar, bozor kon'yunkturasini tartibga solish maqsadida, ishlab chiqarish ustidan birgalikda nazorat o'rnatish to'g'risida deyarli kelisha olmaydilar. Natijada, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining yillik o'zgarib turishi oddiy hol. Ammo qishloq xo'jalik mahsulotlarining narx elastikligi past. Bu esa, talabdagi kichik o'zgarishlar, narxlardagi katta sakrashlarga olib keladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida talab barqaror bo'lgan taqdirda ham undagi narxlar umuman barqaror emas. Fermerga bog'liq bo'lmagan minglab sababga (yuqori va yomon hosil va b.) ko'ra taklif hajmlarida yuz bergan kichkina o'zgarishlar va narx mos bo'lmagan tarzda ko'tariladi yoki pasayadi. Fermerlar daromadlarini o'zgarishi, talabning o'zidagi o'zgarishlarga ham bog'liqdir.

Fermerlar mahsulotlarining narxlarini tushib ketishiga olib keluvchi talabning pasayishi, agrar resurslarning harakatchan bo'lmaganligi sababli ishlab chiqarishning proporsional qisqarishi bilan to'ldirib berilmaydi.

3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari va tamoyillari.

Qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi sub'yektlar resurslar cheklangan sharoitida o'z ishlab chiqarishlarini amalga oshiradilar. Chunki faoliyat amalga oshiriladigan asosiy ob'yekt va vosita hisoblangan yer ham, suv va boshqa resurslar ham cheklangan. Agar korxonalar o'z yer maydonini kengaytirmoqchi bo'lsa, boshqalarni yerga egalik yoki undan foydalanish huquqlaridan mahrum qilib, uni o'z yerlariga qo'shib olishga to'g'ri keladi. Bu esa noqonuniy harakatdir.

Resurslar cheklangan sharoitida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini kehgaytirish uchun asosan jadal (intensiv)lashtirish, ya'ni yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish, urug'chilik va naslchilikni tubdan yaxshilash kabilar hisobiga ekinlar hosildorligi hamda mollar mahsuldorligini oshirish yo'lidan borishga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi juda ko'p xil maxsulotlar - don, paxta, go'sht, sut, jun, teri, tuxum, zigir, lavlagi, asal, moy beruvchi va dorivor o'simliklar va boshqalarni yetishtirib beradi, shuning uchun uning, o'ziga xos xususiyatlarini bilish zarur.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlarini asosiy belgilari shundaki, mazkur jara,nda moddiy boylik yaratishning boshqa tarmoqlardan farqidadir. Bu yerda, kishi mehnati bilan tabiat kuchlari (iqlim, tuproq va xokazo) va chorva mollari yordamida xamda ekinlarning xayotiy funksiyasi (o'sish energiyasi, rivojlanish va xokazo) orqali yuqori darajada mo'l maxsulot yetishtirish mumkin bo'ladi. Agarda sanoat ishlab chiqarishining texnologik jarayonlari va mehnat jarayonlarida mexanik, ximik, termik va boshqa yo'llar bilan ta'sir etish orqali ish ko'rilsa, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga o'simlik va chorva mollari xayotidagi biologik jarayonlarga ta'sir etilib, kishilar mehnati bilan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Shuningdek, sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun umumiy bo'lgan mashina, asbob uskunalar, imoratlar kabi mehnat vositalari bilan bir qatorda qishloq xo'jaligida yer, eng asosiy ishlab chiqarish vositasi xisoblanadi. Boshqa ishlab chiqarish vositalari vaqt o'tishi bilan ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi natijasida eskirib, o'zining qiymatini yo'qotadi va almashtirilishi mumkin, yer esa o'zgarmas vosita bo'lib qoladi, unga to'g'ri ilmiy tarzda ishlov berish natijasida unumdorligi oshib, yana xam yaxshilanishi mumkin.

Ana shunday farqlovchi belgilardan yana biri qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vosita sifatida tirik organizmlar (chorva mollari, o'simliklar) dan foydalanishdir. Shuning uchun xam doimiy amalga oshiriladigan takror ishlab chiqarish jarayoni, dexqonchilik va chorvachilikda tabiiy ravishda qaytalanib turadigan, ishlab chiqarish bilan chambarchas boglanib ketadigan o'sish va rivojlanishda namo.n bo'ladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini to'g'ri rivojlantirish uchun birgina texnika taraqqiyotining yaxshi bilish kifoya qilmaydi, balki ishlab chiqarish texnologiyasini, o' simlik va chorva mollarining o'sishi va rivojlanishining biologik qonuniyatlarini, chorvachilik va dexqonchilik tizimlari xamda mehnatni tashkil etish, ishlab chiqarishni boshqarish kabi masalalarni xam to'la bilish zarur.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining davomiyligi, ekinlar va chorva mollarining o'sishi va rivojlanishi asosan tabiiy sharoitlarga bogliqligi bilan belgilanishi ma'lum. Lekin kishilar ularga agrotexnik va zootexnik tadbirlar bilan ta'sir ko'rsatadilar, ya'ni yuqori maxsuldorlikka ega bo'lgan chorva mollarini yetishtirishni, ekinlarni tanlash, seleksiya yo'li bilan ko'paytirish, ularga qulay sharoitlar yaratish vositasida ekinlar va chorva mollarining tabiiy o'sish va rivojlanish qonun- qoidalariga ta'sir etadilar. Natijada qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning davomiyligi jarayonini tezlashtirishga erishiladi.

Qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqarish davri yoki vaqti - bu boshlang'ich xom ashyoning pirovard maxsulotga aylanishigacha ketgan muddatidir. Maxsulot ishlab chiqarish davrining asosiy qismi ish davri bo'lib, bu boshlang'ich xom-ashyoning mehnat jarayoni ta'sirida bo'lgan vaqtidir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida mahsulot yetishtirish uchun sarf qilingan ishlab chiqarish davri, ish davridan anchagina farq qiladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik maxsulotlarining barcha o'sish va rivojlanish davrining davom etishi turlicha ekanligi, ish jarayonlarining davom etishi bir-biriga to'g'ri kelmasligi qishloq xo'jaligini tashkil etishda o'ziga xoslikni nazarda tutadi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida maxsulot ishlab chiqarishi davri ish davriga to'g'ri kelmasligi, ayniksa, dexqonchilikda va ayrim hollarda chorvachilikda xam ish kuchidan, texnikadan, yerdan foydalanishda, oy va yilning ayrim davrlarida mavsumiylikni yuzaga chiqaradi.

Demak, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi kishilar hayotidagina emas, balki mamlakat iqtisodiyotining xozirgi rivojlanish xolatiga xam ta'sir etuvchi juda katta va ko'p qirrali sharoitlar xamda omillarga ega bo'lgan murakkab tarmoq xamdir.

Fanning o'rganish obyekti bo'lib, bugungu kunda qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi sub'yektlar: qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaliklari), fermer, dehqon, xo'jaliklari, agrofirmalar hisoblanadi.

Qonuniyat deganda jamiyat hayoti yoki xo'jalik jarayonlaridagi hodisa va voqyealarning

qaytarilib keladigan va biror-bir ahamiyatga ega bo'lgan aloqasi tushuniladi. Amaliyotda esa, ayniqsa tabiiy jarayonlarda, qonuniyatlar va doimiy mustahkam aloqalarni har doim ham ajratish mumkin bo'lavermaydi. Qishloq xo'jaligida tarmoqning rivojlanishi va ishlab chiqarishni tashkil etish qonuniyatlari aniqlangan, ularning ko'pchiligi mohiyatan, doimiy xarakterga ega bo'lib, umumiy qoidalardek amal qiladilar.

Aynan qonuniyatlarni aniqlash orqali qonunlar ochiladi. O'z navbatida, qonunlarni bilish, izlanish olib borilayotgan jarayon, voqeya, hodisa sodir bo'lishi shartlari bilan aniqlanadigan qonuniyatlar xilma-xilligini aniqlash imkonini beradi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining qonuniyatlarini quyidagi guruhlarga birlashtirish mumkin:

Tabiiy - tarixiy qonuniyatlar. Qishloq xo'jaligining asosiy xususiyatlaridan biri - tabiiy omillarga, korxonalarining joylashuv hududlariga, ishlab chiqarishni tashkil etish sharoitlariga bog'liqligidir. To'g'ri tashkiliy qarorlarni qabul qilish, ammo oldindan bilib bo'lmaydigan hollar (do'l, qurg'oqchilik, epidemiya va boshqalar), ularni hayotga tadbiq etishga yo'l qo'ymasliklari mumkin.

Tuproq-iqlim sharoitlari mazkur hududning bioiqlim salohiyatini, ishlab chiqarish ixtisosligini belgilaydi. Soha tabiiy-jo'g'rofik omillarni faol ishlatilishini nazarda tutadi.

Tabiiy omillarni hisobga olish uchun ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va usullarini egiluvchanligi, ish kuchi, texnikadan foydalanishda harakatchanlik lozim.

Tabiiy ofatlar bo'lishi ehtimoli bilan korxonalar urug'lik, yem - xashak va boshqa moddiy resuslar zaxiralariga ega bo'lishlari lozim. Bu ish kuchiga ham tegi shlidir.

Qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish xarajatlarining maxsus tarkibi mos keladi. Ularning tarkibida mineral o'g'it, mehnat haqi, YOMM, ish va xizmatlar, zotli mollarni va yaxshi navli urug'lik xarid qilish asosiy o'rinni egallaydi.

Texnik va texnologik qonuniyatlar. Yetarlicha texnika bilan ta'minlanganlik, ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashtirilishi ishlarning mehnat sig'imini va qo'l mehnatini kamayishiga olib keladi. Bunda aniq samara bir birlik mahsulotga bo'lgan umumiy mehnatning kamayishini bildiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligining o'sishida biror-bir ish turini bajarish uchun ayrim mexanizatsiya vositalarini ishlatish emas, balki mahsulotning asosiy turlarini ishlab chiqaruvchi mashinalar tizimi mavjudligi yordam beradi.

Tashkiliy qonuniyatlar. Ishlab chiqarishdagi tashkiliy ishlar asosan rahbardan kelib chiqadi. Boshqa sharoitlar bir xil bo'lsa, yuqori malakali rahbar boshchiligidagi jamoa muvaffaqiyatga erishadi.

Takomillashgan tashkiliy tuzilma va boshqaruv tuzilmasi, korxonalar funksional xizmatlarining muvofiq tarkibi, ma'muriyat va bo'linmalarining vakolatlari chegaralarini belgilash, boshqaruvni yaxshilash imkonini beradi. Vazifalar, maqsadlar va vazifalarning aniqligi birlamchi mehnat jamoalarining mas'uliyatini oshiradi.

Shartnomalar asosida aloqalarini to'g'ri tashkil etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Korxonalar va uning bo'linmalarini resus salohiyati, asosiy omillarining (yer, boshqa ishlab chiqarish vositalari, mehnat resuslari) oqilona nisbatida yanada to'laroq va samaraliroq ishlatiladi. Shu munosabat bilan birinchi navbatdagi kapital qo'yilmalar minimumdagi resursni o'sishiga va uning sifatini oshirishga yo'naltiriladi. Ishlab chiqarishni tashkil etishning holati ishlovchilar malakasiga ham bog'liqdir. Ularning bilim darajasini doimiy tarzda oshirib borish, xo'jalik yuritish tizimi samaradorligining muhim shartidir.

Iqtisodiy va ijtimoiy qonuniyatlar. Iqtisodiyotning turli darajalari va har bir sohasidagi asosiy qonuniyat, ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi ularning o'zaro kelishuvi va o'zaro ta'siridan iboratdir.

Hozirgi bosqichda, ishlab chiqarish kuchlari o'sishining chegaralangan imkoniyatlari sharoitida, korxonalarda munosabatlarining yangi shakllari izlanayapti. Ichki xo'jalik munosabatlarini qayta tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga olib kelishi

mumkin.

Milliy va chet el fan va amaliyoti yirik ishlab chiqarishning ustunliklarini tasdiqlaydi. Ammo islohotlar ko'p hollarda aynan yirik korxonalarni bo'linishga qaratilgandir. Shu bilan birga, ichki xo'jalik munosabatlarini qayta tashkil etib, birlamchi ishlab chiqarish jamoalariga mulkdor va tovar ishlab chiqaruvchi mavqeini bergan holda, yirik ishlab chiqarishni saqlab qolish iqtisodiy jihatdan istiqbollidir. Bu yo'l sezilarli xarajatlar bilan bog'liq bo'lsada, xo'jalik tizimining butunligini saqlab qolish imkonini beradi. Bu oqilona nisbatdagi, mintaqa sharoitlari hamda korxonalar joylashuvini hisobga olgan holdagi, yirik va kichik ishlab chiqarishlar birikmasini inkor etmaydi.

Korxonalar samaradorligiga mehnatni tashkil etishni shakllari va darajasi o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligi qonuniydir. Rivojlangan infratuzilmada mehnat va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil etishning keng imkoniyatlari mavjud.

Ishlovchilar daromadining sezilarli ulushi ularning shaxsiy tomorqasidan tushadi.

Ekologik qonuniyatlar. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi atrof muhitga o'z ta'sirini o'tkazgan holda ochiq makonda amalga oshiriladi. Bu ta'sir turlicha namoyon bo'ladi.

Tuproqning ifloslanishiga, o'g'itlash texnologiyasiga rioya qilmaslik, qo'llanilayotgan vositalarning past sifatliigi, mikrofloraga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, tuproq tuzilmasini yomonlashuviga olib keluvchi, tuproqni qayta ishlash tizimini buzilishi sabab bo'lishi mumkin.

Salbiy ekologik vaziyat chorvachilik va oziq-ovqat mahsulotlarining sifatida o'z aksini topadi. Shunday qilib, ekologiya muammosi inson hayotiy faoliyatining havfsizligi muammosiga aylanadi.

Bozor munosabatlarining qonuniyatlari. Bozor tovar aylanmasi sohasi, almashinuv jarayonlarida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Bozor mexanizimini talab va taklifni muvofiqlashtirish usuli sifatida ham ta'riflaydilar.

Talab deganda pul bilan ta'minlangan jamiyat ehtiyojini ifodalash shakli tushuniladi. Taklif tovar shaklini olgan ishlab chiqarishning natijasidir.

Talab va taklif narxlar bilan belgilanadi.

Bozorning erkin faoliyat yuritishi uchun tegishli sharoitlar bo'lishi lozim: tovar ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik huquqi va o'z mehnati natijalariga mustaqil egalik qilish huquqi; jamiyat ishlab chiqarishining barcha ishtirokchilari tadbirkorlik va tijorat faoliyati erkinligi; milliy valyutaning mustahkamligi; tovar ishlab chiqarishda bozor muhi-tiga kirib borish uchun qobiliyat va bilimning mavjudligi.

Bozor munosabatlari qaror topishining asosiy sababi sifatida shaxsiy manfaat ustuvorligini ko'rsatish mumkin.

Ish xaqi chegaralanmasligi, ishlab chiqarish va mehnatga xaq to'lash, hamda tovar va pul massalari orasidagi munosabatlar buzilmasligi lozim.

Dunyodagi hiech qaysi rivojlangan mamlakatda iqtisodiyot va uning ayrim tarmoq va sohalarini davlat boshqaruvisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu jamiyat nuqtai nazaridan, uning muvofiq amal qilishini ta'minlash zaruriyati bilan bog'liq. Odatda, davlat iqtisodiyotga bo'lgan aralashuvni tartibga soluvchi va barqarorlashtiruvchi tadbirlar, hamda taqsimlash jarayonlarini boshqarish yo'li bilan amalga oshiradi.

Nazorat uchun savollar.

1. Ishlab chiqarishni tashkil etishdagi omillar.
2. Fanning ta'rifi va tizimini tushuntiring.
3. Fanning boshqa iqtisodiy va qishloq xo'jalik fanlari o'rtasidagi o'rni nimadan iborat.
4. Fanni o'rganishda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat va ular qanday xisobga olinadi.
5. Fanning predmetini tushuntiring.
6. Fanning obyektlarini ta'riflang.

7. Fanning izlanish usullarini ayting.
8. Statistik guruxlash usulining mazmunini tushuntiring.
9. Monografik usul nimadan iborat.
10. Xisoblash-analitik usulni tushuntiring.
11. Matematik-modellashtirish qanday usul.
12. Fanning maqsadi nimadan iborat.
13. Fanning asosiy vazifalarini ayting.

GLOSSARIY

AGRAR MUNOSABATLAR - yerga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardan iborat.

BOZOR IQTISODIYOTI - erkin tovar pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

IQTISODIY O'SISH - yalpi milliy mahsulot (sof milliy mahsulot, milliy daromad) yillik miqdorini mutloq o'sishidir.

IQTISODIY QONUNLAR - iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi doimiy takrorlanib turadigan, barqaror aniq sabab-oqibat aloqalarini, ularning bog'liqligini ifodalovchi voqea- hodisalar.

ISHLAB CHIQRISH JARAYONI - jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan foydalanib, jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratish.

ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARI - hayotiy ne'matlarning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.

ISLOHOT - turli ravishda o'tkazilgan o'zgarish: isloh qilish, reforma. Iqtisodiy I.- iqtisodni inqiroz holatidan chiqarish borasida o'tkazilgan chora- tadbirlar

MEHNAT - bu insonning biror bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyat bo'lib, u orqali inson o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat in'omlarini o'zgartiradi. Inson mehnati ikki yoqlama xarakterga ega: a) **KONKRET MEHNAT**- tovarning iste'mol qiymatini yaratadigan, biron bir aniq ko'rinishga ega bo'lgan mehnat turi tushuniladi.b) **ABSTRAKT MEHNAT**- tovar qiymatini yaratadi. «Abstrakt» (so'zi o'zbek tilida «mavhum» degan ma'noni bildiradi). Mehnat aniq shaklidan qat'iy nazar umuman sarflangan ish kuchidir, jami ijtimoiy mehnat sarfidan iborat bo'ladi.

QONUN - 1) ob'yektiv borliqda turli hodisalar o'rtasida,, kishi ongidan va ixtiyoridan tashqarida doimiy bo'lgan zaruriy ichki, muhim, takrorlanadigan bog'lanish, munosabat; 2) davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo'lgan ijtimoiy-huquqiy norma va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida; 3) bajarilishi shart, majburiy bo'lgan, norma, qoida tusiga kirgan talab, topshiriq va shu kabilar.